

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASINING NOZIK JIHLTLARI

*Ro'ziboyeva Gulnoza Furqat qizi*

*Samarqand Davlat Chet tillari instituti talabasi*

**Annotatsiya;** Ushbu maqolada maktabgacha yosh bolalarda psixologiya, ularning ilm olishdagi psixologiyasi, qiziqishlari .Hozirgi rivojlanayotgan davlatimizda maktabgacha talimga bo'lgan etibor va o'zgarishlar bo'yicha fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar;** Boshlang'ich ta'lim, zamonaviy yondashuv, bolalar psixologiyasi, o'qitish metodikasi, til o'rgatish...

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan, Prezidentning 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar haqida"gi Farmoniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8-dekabrda "Boshlang'ich talimga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlar haqida"gi qarorini ijro etish doirasida O'zbekiston o'z zimmasiga 6-7 yoshli bolalarning maktabga to'lovsiz majburiy bir yillik tayyorgarligi bo'yicha majburiyatni oldi. 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta'lim tarbiya berish va maktabga tayyorlash maqsadida, "Ilm yo'li" dasturini ishlab chiqish hamda uni tasdiqlash zarurati paydo bo'ldi.

### METODOLOGIYA

Bizni maktabgacha yoshdagi bo'lgan bolalarning psixologiyasidagi shunday jihat e'tiborimizni qaratdikki, ular aynan shu davrda o'z qiziqishlari, yetakchi faoliyati bo'lgan syujetli-rolli o'yinlardagi harakatlari bilan birgalikda ijtimoiy dunyoning, avvalo, ota-ona oilasidagi rollarga va o'zaro munosabatlarga e'tiborli bolib, aynan ot-onalikda xos qiliqlarni o'zlashtirishga kirishadilar. Bola bunda uning oldida ro'y berayotgan voqea-hodislarning kuzatuvchisi va ishtirokchisiga aylanib, bu jarayonlar qanchalik dinamik bo'lsa, shunchalik faol va qiziquvchan bo'ldi, ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlarga nisbatan ko'proq, to'laroq va turli-tuman axborotlarni oladi, o'zlashtiradi va fikrlaydi.

Haqiqatdan ham hozirgi kunda biz bajargan ishlarimizga qarab taqlid qiladi chunki ularda bu yoshda faqat ko'rish va eshtish sezgilari rivojlangan bo'ladi. Bola ko'chadan o'ynab kelganda otasini yoki onasini qo'lida telefon bilan band bo'lganini emas kerakli mashg'lot bilan mashg'ul bo'lganini ko'rishi lozim. Ko'pincha

maktabgacha yosh bolalar onalari bilan birga bo'lishadi. Ular ko'chadan o'ynab kulib kelganida onasining biror kitob mutolaa qilayotganini ko'rishi lozim. Bu bolada kitobga qiziqish va ota-onaga bo'lgan hurmatni oshiradi. Ota -ona farzandi uchun doim ideal inson bo'lib qolishlari kerak. Aytishganidek "Qush uyasida ko'rganini qiladi". Shuning uchun ham ota-onalar farzandlariga o'rnak bo'lishlari kerak. Bunda "Oila" bola "men"ni shakllantiruvchi muhim sotsium-ijtimoiy aylanib, o'zining ushbu muhitiga aloqadorligini anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yerda shuni qayd etib o'tish joizki, ijtimoiy psixologlarning fikricha, oiladagi shaxslararo munosabatalar tuzilmasida ota-ona-bola munosabatlari evolyutsimon jihatdan nisbatan kechki va mazmunan aniqroq hisoblanadi, chunkinular shakllanib bo'lgan er-xotin munosabatlari asnosida vujudga keladi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'chaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas. Bir jiyanim bor bugun bog'chada nimalar bo'ldi hammasini aytib beradi. Opajon bugun mashq bajardik, rus tili, ingliz tili darslatini o'tdik o'qtuvchimiz shirinliklarni nomini o'rgatdilar deyapti xop aytib berchi desam hamma so'zlarni aytyapti orasida "honey" asal so'zini noto'g'ri taluffus qilyapti. Go'zalim bu so'z talaffuzda "haney" deb aytiladi desam yo'q siz xato aytiyapsiz bizga o'qtuvchimiz boshqacha o'rgatdilar deb aytyapti. Bu yoshdagi bolalarda xuddi shunday biror narsani eshisa yoki ko'rsa shu ishni xuddi o'zidek takrorlaydi. Shuning uchun hamma harakatlarimizda gaplarimizda ularga o'rnak bo'la olishimiz kerak. Maktabgacha yoshdagi bola psixologiyasi ilmida bu yoshdagi bolalarsifat o'zgarishlari tezlashganligini inobatga olgan holda bu davrni uch bosqichga taqsimlab o'rganish maqsadga muvofiq deb topilgan; kichik maktabgacha davr (3-4 yosh); o'rta maktabgacha davr (4-5); katta maktabgacha yosh (5-6 yoshgacha); maktabga tayyorlov yoshi (6-7 yoshgacha). Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Faoliyatdagi mustaqillik, o'z-o'zidan tafakkurdagi mustaqillikka asos bo'ladi. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bosqich ularda murakkab harakatlarni takomillashtirish, elementlar gigiyena, madaniy mehnat malakalarni hosil qilish, nutqini o'stirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini yuzaga keltirish davri hamdir. Kichik maktab yoshdagi psixologik hususiyatlarini o'rgangan A.N. Golubevaning fikricha noqulay sharoitda bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish unda o'jarlikni paydo qiladi. Shuningdek bu yoshdagi bolalarning o'jarligi doimiy bo'lmaydi, masalan o'z tengdoshlariga nisbatan o'jarlik qilish ahyon-ahyondagina ro'y beradi, ular asosan katta yoshdagi odamlarga hususan muayyan tarbiyachiga yoki oila a'zolarining birortasiga o'jarlik qiladi. O'jarlik qaysarlik kattalarga i toatsizlikning vujudga kelishi bolaning kattalarga qaramlikdan qutulishga urinish va kichik maktabgacha yosh davridan katta

maktabgacha davrga o'tishning tashqi ifodasidir, yoki bo'lmasa kattalarning etibori kamligi tufayli o'jarlik qilib ularning etiborini tortmoqchi bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarda eng asosiysi etibordir. Maktabgacha yoshi-bu bolaning atrofida dunyoni faol o'rganadigan davr. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarining psixologik rivojlanish xususiyatlariga ega. Yurish boshlaganida, bola juda ko'p kashfiyotlar qiladi, xonada, ko'chada, bolalar bog'chasida joylashgan narsalar bilan tanishadi. Turli narsalarni yig'ish, ularni o'rganish, mavzudan kelib chiqqan tovushlarni tinglash, bu obektning qaysi fazilatlar va xususiyatlar borligini biladi. Ushbu davrda bolaning ingfugurativ va effektiv fikrlash shakllari yaratilgan. 5-6 yoshligida bola, shimgich kabi, barcha ma'lumotlarni so'radi. Olimlar ushbu yoshlik davrida bolaning bu ma'lumotini esga olishini, bundan keyin u hayotda hech qachon eslamasligini isbotladi. Bola ufqlarini kengaytira oladigan har qanday narsaga qiziqish uyg'otadigan davrdir va bu uning atrofidagi dunyoni qo'llab-quvvatlaydi. Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi yoshlar xotirjamlik hissi bilan ajralib turadi. Ularning kichik sabablariga ko'ra ziddiyatlari va kuchli effektiv epizootiyalari yo'q. Biroq, bu bolaning hissiy hayoting to'yinganligi pasayadi degani emas. Axir, preschooler kuni juda ko'p his-tuyg'ularga to'lib ketadi, shuning uchun kechqurun bola charchagan va to'liq charchash uchun keladi. Bu davrda hissiy jarayonlarning tuzilishi ham o'zgaradi. Ilgari motorli va vegetativ reaksiyalar maktabgacha yoshdagi bolalarda saqlanib qolgan emotsional jarayonlarga kiritilgan, ammo hissiyotlarning tashqi ifodasi yanada cheklangan shaklga ega bo'ladi. Maktab o'quvchilari nafaqat bugungi kunda qilayotgan ishidan, balki kelajakda nima qilishidan ham xafa bo'lib xursand bo'lishadi.

Presedrga tegishli bo'lgan har bir narsa -rasm, o'yin, qolib turish, onaga yordam berish, uy ishlarini bajarish-yorqin hissiy rangga ega bo'lishi kerak, aks holda narsalar tezda yiqilay yoki umuman bo'lmaydi. Chunki bu yoshdagi bola unga qiziq bo'lmagan ishni bajarolmaydi. Bola psixologiyasida hamma nasra oilaga borib taqalyapti. Shuni aytish mumkinki, oilaning zimmasiga ulkan va zarur ijtimoiy missiya yuklangandir. Bola tarbiyasi eng og'ir ijtimoiy vazifa ekanligi ayondir. Ota va onaning shaxsiy va ijobiy namunasi solih va soliha farzandlarning kamolga yetishi uchun garovdir. Shu boisdan, oilaviy munosabatlarda shaxsning umummadaniy dunyoqarashini shakllantirishga erishish, nafaqat shaxsiy hayotda, balki, mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va ularning taraqqiyoti jamiyatning ruhiy va ma'naviy takomillida ham muhim o'rin tutadi

### **Adabiyotlar**

1. I.A.Karimov. "Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori"
2. E.G'ozlev. "Psixologiya". Toshkent.
3. M.Vohidov. "Bolalar psixologiyasi asoslari".